

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA “TERGOV SUDYASI” INSTITUTINING JORIY ETILISHI**

**Jumanazarova Gulnoza Qahramon qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilgan “tergov sudyasi” instituti, uning huquqiy asoslari va vakolatlari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Jinoyat-protsessual kodeksining 31(1)-moddasiga muvofiq tergov sudyasining sudga qadar ish yuritish bosqichida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda samarali sud nazoratini ta’minlashdagi o’rni yoritilgan. Shuningdek, mazkur institutning joriy etilishi odil sudlov mustaqilligini oshirish, tizimdagi “ayblov moyilligi”ni kamaytirish va tomonlarning tortishuvchanlik prinsipini kuchaytirishdagi ahamiyati huquqiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tergov sudyasi, sud nazorati, inson huquqlari, sudga qadar ish yuritish, Jinoyat-protsessual kodeksi, ehtiyot chorasi, qamoqqa olish, dalillarni mustahkamlash, sud islohoti, tortishuv tamoyili.

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda jinoyat protsessining samaradorligini oshirish maqsadida keng ko‘lamli huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri – jinoyat-protsessual qonunchilikni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, unda shaxs huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish va sud nazoratining rolini oshirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan yangi normalar jinoyat ishlarini yuritish tizimining yanada shaffof, adolatli va qonuniy asosda olib borilishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Jinoyat protsessining sudga qadar bo'lgan bosqichi shaxsning huquq va erkinliklari eng ko'p ta'sirga uchraydigan jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda shaxsni ushlab turish, qamoqqa olish, tintuv o'tkazish, mol-mulkni xatlash yoki aloqa vositalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish kabi protsessual choralar qo'llanilishi mumkin. Bunday choralar esa shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari – shaxsiy erkinlik, yashash joyi daxlsizligi, shaxsiy hayot sirini saqlash va mulk huquqi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ushbu jarayonlarda qonuniylikni ta'minlash va davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Aynan shu maqsadda jinoyat-protsessual qonunchilikka yangi institut – tergov sudyasi instituti joriy etildi. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ-1022-sonli Qonuni<sup>1</sup> bilan Jinoyat-protsessual kodeksi 31(1)-modda<sup>2</sup> bilan to'ldirilib, unda tergov sudyasining vakolatlari va sudga qadar ish yuritish bosqichidagi sud nazoratining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur norma jinoyat protsessining muhim bosqichi hisoblangan tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan. Tergov sudyasi institutining joriy etilishi jinoyat protsessual tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki endilikda shaxsning huquqlarini cheklash bilan bog'liq ayrim muhim protsessual qarorlar faqat sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu esa jinoyat ishlarini yuritishda sud hokimiyatining rolini oshirish, tergov organlari faoliyati ustidan mustaqil nazoratni ta'minlash hamda protsessning qonuniyligi va adolatliligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur tahliliy ishning asosiy maqsadi – jinoyat protsessual qonunchilikka kiritilgan yangi norma, ya'ni Jinoyat-protsessual kodeksining 31(1)-moddasida nazarda tutilgan tergov sudyasining vakolatlarini huquqiy jihatdan tahlil qilish, ushbu institutning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda uning jinoyat protsessidagi amaliy ahamiyatini baholashdan iboratdir. Shuningdek, mazkur o'zgarishning sud-huquq tizimini takomillashtirishdagi o'rni, inson huquqlarini himoya qilishdagi roli va jinoyat protsessining samaradorligiga

---

<sup>1</sup> [O'zbekiston Respublikasi 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ Qonuni](#)

<sup>2</sup> [O'zbekiston Respublikasi JPK 31\(1\)-modda](#)

ko'rsatadigan ta'siri ham tahlil qilinadi. Shu jihatdan qaralganda, tergov sudyasi instituti jinoyat protsessual qonunchiligini yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy yangiliklardan biri bo'lib, u zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Jinoyat protsessual qonunchilikka kiritilgan yangiliklarning huquqiy asoslari**

Jinoyat-protsessual qonunchiligining mazmunan yangilanishi va tizimga "Tergov sudyasi" institutining kirib kelishi tasodifiy jarayon emas, balki mamlakatimizdagi sud-huquq islohotlarining qonuniy va mantiqiy davomidir. Ushbu yangiliklarning huquqiy asosi ierarxik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta muhim hujjatlarga tayanadi.

Birinchi navbatda, ushbu islohotlarning bosh poydevori yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi<sup>3</sup> hisoblanadi. Konstitutsiyaning 27 va 28-moddalarida shaxsning sud qarorisiz ushlab turilishi, harakatlanishi va uning erkinliklari cheklanishi mumkin emasligi haqidagi normalar mustahkamlandi. Aynan mana shu konstitutsiyaviy tamoyilni amaliyotda ijro etish uchun jinoyat-protsessual qonunchiligiga fundamental o'zgarishlar kiritish zarurati tug'ildi. Bevosita qonunchilik darajasida ushbu islohotlarning huquqiy asosi sifatida 2024-yil 10-iyundagi PF-89-sonli Prezident Farmoni<sup>4</sup> va uning ijrosi doirasida qabul qilingan qonunlarni ko'rsatish joiz. Xususan, 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ-1022-sonli Qonun bilan JPKga ilk bor 31(1)-modda kiritilib, tergov sudyasining vakolatlari va uning protsessual maqomi qonuniy jihatdan rasmiylashtirildi.

Shuningdek, tahlilimizda alohida ta'kidlash kerakki, 2025-yil 15-avgustdagi O'RQ-1081-sonli Qonun<sup>5</sup> bilan 31(1)-modda yanada takomillashtirildi. Bu qonuniy asos tergov sudyasining vakolatlarini nafaqat ehtiyot choralari bilan cheklab qolmay, balki dalillarni oldindan mustahkamlash kabi murakkab va inson huquqlari uchun muhim bo'lgan harakatlarni ham qamrab olishiga xizmat qildi.

---

<sup>3</sup> [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi](#)

<sup>4</sup> [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.06.2024 yildagi PF-89-son](#)

<sup>5</sup> [O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.08.2025 yildagi O'RQ-1081-son](#)

Xulosa qilib aytganda, ushbu yangiliklarning huquqiy asosi “Konstitutsiya – Farmon – Kodeks” zanjiri asosida tizimli ravishda qurilgan. Bu esa tergov sudyasi vakolatlarining qonuniyligini va uning jinoyat protsessidagi boshqa subyektlardan (tergovchi, prokuror) mustaqil ekanligini huquqiy jihatdan to’liq kafolatlaydi.

### **Jinoyat-protsessual kodeksining 31(1)-moddasi: tergov sudyasining vakolatlari tahlili**

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 31(1)-moddasi jinoyat ishlarini yuritish tizimida muhim ahamiyatga ega bo’lgan yangi huquqiy institut – tergov sudyasi faoliyatining asosiy vakolatlarini belgilab beradi. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko’ra, tergov sudyasi yakka tartibda ish yuritib, sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida sud nazoratini amalga oshiradi. Bu norma jinoyat protsessining dastlabki bosqichida davlat organlari faoliyati ustidan mustaqil sud nazoratini joriy etish orqali shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

31(1)-moddaning ikkinchi qismida tergov sudyasining aniq vakolatlari belgilab berilgan bo’lib, ular asosan shaxsning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog’liq protsessual masalalarni ko’rib chiqishga qaratilgan. Avvalo, tergov sudyasining eng muhim vakolatlaridan biri qamoqqa olish yoki uy qamog’i tarzidagi ehtiyot chorasini qo’llash to’g’risidagi iltimosnomalarni ko’rib chiqishdan iboratdir. Ma’lumki, ehtiyot choralarining ushbu turlari shaxsning erkinligini cheklash bilan bog’liq bo’lib, ularning qo’llanilishi faqat yetarli asoslar mavjud bo’lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim. Shu sababli ushbu masalalarning sud tomonidan ko’rib chiqilishi jinoyat protsessida qonuniylikni ta’minlash hamda shaxs erkinligining asossiz ravishda cheklanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tergov sudyasi qamoqda saqlash yoki uy qamog’i muddatini uzaytirish masalasini ham ko’rib chiqadi. Ushbu vakolat jinoyat protsessida ehtiyot choralarining davomiyligini nazorat qilishga qaratilgan bo’lib, shaxsni uzoq muddat asossiz ravishda erkinlikdan mahrum etishning oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tergov sudyasi shaxsni ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to’g’risidagi

iltimosnomalarni ham ko'rib chiqadi. Bu norma shaxsni ushlab turish jarayonida qonuniylikni ta'minlash hamda protsessual muddatlarga qat'iy rioya qilinishini nazorat qilishga qaratilgan.

31(1)-modda tergov sudyasiga shaxsning ayrim konstitutsiyaviy huquqlarini vaqtincha cheklash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish vakolatini ham beradi. Jumladan, pasportning yoki boshqa harakatlanish hujjatining amal qilishini to'xtatib turish hamda shaxsning O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash to'g'risidagi iltimosnomalar ham tergov sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Ushbu choralar jinoyat protsessining samarali olib borilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ular shaxsning erkin harakatlanish huquqiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bunday masalalarning sud tomonidan ko'rib chiqilishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, tergov sudyasining vakolatlari qatoriga ayblanuvchini egallab turgan lavozimidan vaqtincha chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish ham kiradi. Ushbu chora odatda jinoyat ishi tergov jarayonida ayblanuvchining xizmat mavqeidan foydalanib tergovga to'sqinlik qilish ehtimoli mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Shu bilan birga, tergov sudyasi shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish hamda ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ham ko'rib chiqadi. Bu vakolatlar shaxsning sog'lig'i bilan bog'liq masalalarni hal qilish jarayonida ham sud nazoratini ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur modda tergov sudyasiga ayrim muhim tergov harakatlarini o'tkazishga ruxsat berish vakolatini ham beradi. Jumladan, murdani eksqumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, telefon va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish hamda ular orqali uzatiladigan axborotni olish kabi protsessual harakatlar tergov sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Ushbu harakatlar shaxsning yashash joyi daxlsizligi, yozishmalar sirini saqlash va shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni amalga oshirish faqat sud ruxsati asosida amalga oshirilishi demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos keladi.

Shuningdek, tergov sudyasi tintuv o'tkazish hamda mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish vakolatiga ham ega. Tintuv o'tkazish jarayoni shaxsning yashash joyi daxlsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, mol-mulkni xatlash esa shaxsning mulk huquqiga taalluqlidir. Shu sababli ushbu protsessual harakatlarning sud nazorati ostida amalga oshirilishi jinoyat protsessining qonuniyligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

31(1)-modda yana bir muhim vakolatni ham nazarda tutadi, ya'ni prokurorning guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqish. Bu jarayon ayrim holatlarda dalillarning yo'qolib ketishi yoki keyinchalik taqdim etilishi qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda ularni oldindan qayd etish imkonini beradi. Natijada jinoyat ishini har tomonlama, to'liq va xolisona tergov qilish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Shuningdek, mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq tergov sudyasi ushbu vakolatlarni Jinoyat-protsessual kodeksining 416 va 417-moddalarida nazarda tutilgan tartibda qo'shimcha protsessual harakatlarni bajarish jarayonida ham amalga oshirishi mumkin. Bu esa tergov sudyasining sud nazoratini amalga oshirish doirasini yanada kengaytiradi hamda jinoyat ishlarini yuritish jarayonida qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Jinoyat-protsessual kodeksining 31(1)-moddasi jinoyat protsessida sud nazoratining yangi mexanizmini shakllantirib, tergov organlari faoliyati ustidan mustaqil sud nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur norma shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyat ishlarini yuritishda qonuniylikni ta'minlash hamda sud hokimiyatining rolini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tergov sudyasi instituti zamonaviy jinoyat protsessual tizimining muhim elementlaridan biri sifatida baholanadi.

### **Tergov sudyasi institutining jinoyat protsessidagi ahamiyati**

Tergov sudyasi institutining milliy jinoyat-protsessual huquqimizga tatbiq etilishi shunchaki yangi lavozim yaratish emas, balki odil sudlov sifatini tubdan o'zgartiruvchi

strategik ahamiyatga ega qadamdir. Mazkur institutning ahamiyatini bir necha fundamental jihatlar orqali tahlil qilish mumkin:

**Birinchidan**, sudyaning xolisligini va mustaqilligini saqlab qolish. Ilgari jinoyat ishini oxirida ko'rib chiqib, odamga hukm o'qiydigan sudya tergov jarayonida ham qatnashar, ya'ni qamoqqa olish yoki tintuv o'tkazishga ruxsat berar edi. Bu holat sudyada ish bo'yicha "bir tomonlama" (ayblovga moyil) fikr shakllanib qolishiga sabab bo'lardi. Chunki odamni qamoqqa olishga ruxsat bergan sudya, keyinchalik o'sha odamni "aybsiz" deb topishga ruhan qiynalar edi. Tergov sudyasi institutining asosiy ahamiyati shundaki, u faqat tergov davridagi qonuniylikni tekshiradi. U shaxsni "aybdor" yoki "aybsiz" deb e'lon qilmaydi, u faqat "tergovchi qonunni buzmadimikan?" degan savol bilan ishlaydi. Ish sudga mazmunan ko'rish uchun yuborilganda esa, uni umuman boshqa sudya (asosiy sudya) ko'rib chiqadi. Natijada, asosiy sudya ishga "toza qalb" va hech qanday oldindan shakllangan fikrsiz yondashadi. Bu esa sudning haqiqiy adolatliligini va xolisligini yangi darajaga ko'taradi.

**Ikkinchidan**, "Ayblovga moyillik" darajasini pasaytirish. Tergov sudyasi tergov organi va ayblanuvchi o'rtasida o'ziga xos "huquqiy filtr" vazifasini o'taydi. Endilikda tergovchi tomonidan taqdim etilgan har qanday iltimosnoma (qamoqqa olish, tintuv va h.k.) sud tomonidan avtomatik ravishda qabul qilinmaydi, balki uning asosiligi va zarurligi sinchkovlik bilan tekshiriladi. Bu esa tergov organlarini dalillar to'plashda yanada mas'uliyatli bo'lishga va faqat qonuniy yo'llar bilan ishlashga majbur qiladi.

**Uchinchidan**, Inson huquqlari himoyasining kuchayishi. Tergov sudyasi vakolatiga kiritilgan har bir harakat – shaxsnning shaxsiy daxlsizligi, uy-joy daxlsizligi, mulk huquqi va muloqot siri bilan bevosita bog'liq. Masalan, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish yoki pochta jo'natmalarini xatlash kabi amallarning sud nazoratiga o'tkazilishi – bu shaxsiy hayot daxlsizligining davlat tomonidan berilgan kafolatidir. Shuningdek, guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash amaliyoti tergov davridagi noqonuniy tazyiqlarning oldini olishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

**To’rtinchidan,** Sud-tergov harakatlarining tezkorligi. Ixtisoslashgan tergov sudyalarining faoliyat yuritishi protsessual muddatlarga qat’iy rioya qilinishini ta’minlaydi. Ular faqat tergov bosqichidagi murojaatlar bilan band bo’lganliklari sababli, inson huquqlariga oid iltimosnomalarni ko’rib chiqish sifati oshadi va vaqt yo’qotishlarining oldi olinadi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Tergov sudyasi institutining ahamiyati – jinoyat protsessining “tortishuv” tamoyilini haqiqiy ma’noda hayotga tatbiq etishidadir. Bu institut orqali davlat “shaxsni har qanday yo’l bilan jazolash” emas, balki “har qanday vaziyatda adolatni qonuniy yo’l bilan o’rnatish” maqsadini ko’zlashini namoyon etadi.

### **Xulosa**

Mazkur tahlil shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga “tergov sudyasi” institutining kiritilishi sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish jarayonidagi eng muhim huquqiy yangiliklardan biri hisoblanadi. Ushbu institut orqali jinoyat ishlarini yuritishning sudga qadar bosqichida ham sud hokimiyatining faol ishtiroki ta’minlanib, tergov jarayonida qabul qilinadigan muhim protsessual qarorlar ustidan mustaqil va xolis nazorat mexanizmi shakllantirildi. Natijada jinoyat protsessida davlat organlari vakolatlari bilan shaxs huquqlarining himoyasi o’rtasida muvozanatni ta’minlash imkoniyati kengaydi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, tergov sudyasi institutining joriy etilishi jinoyat protsessining mazmunan yangi bosqichga ko’tarilishiga sabab bo’ldi. Chunki bu institut orqali sud hokimiyati faqat yakuniy hukm chiqaruvchi organ sifatida emas, balki protsessning dastlabki bosqichlarida ham qonuniylikni ta’minlovchi muhim nazorat subyekti sifatida namoyon bo’la boshladi. Bu esa jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning asosli va huquqiy jihatdan puxta bo’lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tergov sudyasi faoliyati tergov organlarini o’z vakolatlari amalga oshirishda yanada mas’uliyatli yondashishga undaydi, chunki har bir muhim protsessual qaror sud tomonidan tekshirilishi mumkin. Tergov sudyasi institutining asosiy ahamiyati shundaki, u jinoyat protsessida adolatlilik tamoyilining real mexanizmini yaratadi.

Boshqacha aytganda, ushbu institut davlat organlari vakolatlarini cheklash emas, balki ularni qonuniy va asosli tarzda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa jinoyat ishlarini yuritishda "ayblov ustuvorligi" tamoyilidan voz kechib, haqiqiy tortishuv asosidagi sud jarayonini shakllantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Natijada sud jarayonining xolisligi oshadi va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, ushbu institutning amaliy samaradorligi ko'p jihatdan uning to'g'ri qo'llanilishi va doimiy ravishda takomillashtirib borilishiga bog'liq. Tergov sudyalari faoliyatining samarali tashkil etilishi, ularning kasbiy malakasini oshirish hamda sud-tergov organlari o'rtasidagi protsessual hamkorlikni aniq tartibga solish ushbu institutning to'laqonli ishlashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Agar ushbu yo'nalishda izchil ishlar olib borilsa, tergov sudyasi instituti jinoyat protsessida qonun ustuvorligini ta'minlash hamda inson huquqlarini himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biriga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, tergov sudyasi instituti O'zbekiston Respublikasida jinoyat-protsessual tizimni yanada demokratlashtirish va odil sudlov sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur institutning rivojlanishi nafaqat jinoyat ishlarini yuritish jarayonining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining mustahkam qaror topishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.01.2025 yildagi O'RQ-1022-son
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.08.2025 yildagi O'RQ-1081-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.06.2024 yildagi PF-89-son